

TIL- INSONIYATGA BERILGAN BUYUK NE'MAT

Turg'unova E'zoza

*Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi Yuridik akademik litseyning
1- kurs 3-guruh o'quvchisi*

Ilmiy rahbar: Dilmurod Asqarov

*Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi Yuridik akademik litseyning
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilning jamiyat hayotidagi o'rni, uning so'z sifatidagi qurol hamda aloqa vositasi sifatidagi vazifalari ko'rib chiqilgan. Tilning jamiyat va odamlar orasidagi munosabat, tilning insoniyat uchun berilgan ne'mat ekanligi, vatan tushunchasining til vositasi yuzaga chiqishi ochib berilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *til, jamiyat, tushuncha,*

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvda tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk marifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek : “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A.Navoiy bobomizga tegishli “Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil”. Inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalash bo'ladi. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga

tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, "Til-millat ko'zgusi", "Til-ma'naviyat ko'zgusi", "Til-millatning bebaho boyligi" va shu kabilardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

"Insoniyat shu kunga qadar yaratgan qurollarning eng daxshatlisi til bo'lib qolmoqda", - degan edi mashhur yozuvchi Poelo Koelo. Darhaqiqat, til qandaydir atom va yadro qurollaridanda kuchlidir. So'zimning isbotlash uchun tarixga bir nazar tashlasak, Gitler o'zining kuchli va aniq, jangovor nutqi bilan butun Germaniyani oyoqqa turgizdi va dunyoni qaytadan bo'lib olish taklifini olg'a surdi. U o'z maqsadiga erishdi ham. Germaniya harbiylariga yordam bergan eng katta motiv aslida qurol-yarog' emas Gitlarning harbiyona nutqidir. Men albatta tilni qurolga o'xshataman, janglar boshlanishi uchun ham, urushning tugatilishi haqidagi qarorlarni aytish uchun ham til kerak bo'ladi. Insonlarni ergashtirish, ularni o'ziga ishontirish uchun yaxshigina notiq bo'lish kerak. Gapning indallosi, til hokim, u faqat buyruq beradi, qolgan qurol-aslahalar-u moslamalar hattoki insonlar ham notiqning aytgan gaplarini so'zsiz qabul qiladi va bo'ysunadi.

Shunday ekan, bizda ham eng daxshatli qurol ya'ni til bor. Eng asosiysi, bu bizning tilimizdir.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston mustaqillikka erishish rejasini aynan shu harakatdan boshladi. 1991-30-avgust O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilindi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining jamiyatdagi o'rnini oshirishga qaratilgan bir nechta islohotlar amalga oshirildi. Qaramlik paytida toptalgan milliy qadriyatlarimiz bilan birgalikda o'z tilimiz qaytadan qad rostladi. Ushbu harakatlarni amalga oshirgan asosiy

shaxs, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov kuchli siyosatshunos, shu jumladan dovyurak rahbar va ajoyib notiq edi.

Kundalik hayotimizda foydalanayotgan tilimiz uchun kimlar qanday harakatlarni amalga oshirganini yozay desam, siyoh yetmaydi deb qo'rqaman. Sho'rolar paytida o'nlab jadidlar o'z ona tili va mamlakat mustaqilligi uchun jon berdi. Ona tilida yozgan asarlari chop etilmaganligidan aziyat chekdi. Balki, Alloh ularning harakatlari mahsuli sifatida bizni shunday erkin va tinch kunlarga yetkizgandir. Ammo, biz bu tilni buzib, imlo qoidalarini pisand qilmagan holda, do'stlar va qarindoshlar umuman olganda davra suhbatlarida chet eldan kirib kelgan so'zlarni ishlatishimiz noshukurlik bo'lmasmikin, deb o'ylab qolaman. Qaysi rivojlangan davlat o'z tilini buzib, o'zga davlatlardan kirib kelgan so'zlardan foydalanganini ko'rdingiz? Hech qaysi, shunday emasmi?

Maktablarimizning barcha sinflarida ona tili fani o'qitiladi, ammo bu fanni keyinchalik tilshunoslik yo'nalishidan ketadigan kishilar o'rganishi lozim degan tushuncha shakllanib qolmoqda. Yaxshi eslayman. Maktabdagi ona tili o'qituvchimiz darsda ko'p diktant, insho va bayon yozdirardilar. Boshida ko'p xato qilardim, bora-bora xatolarim kamayib, daftarimga qizil ruchka tegmaydigan darajaga keldi. Esimda qolgan oxirgi diktantda bitta xato qildim, ya'ni "shafqat" so'zini "shavqat" deb yozganman va bu men uchun katta dars bo'lgan. Kollejda o'qish uchun kirish imtihonida ham ona tili fanidan insho yozganmiz. Maktablarimizda diktant, insho va bayon yozishga ko'proq e'tibor berish, o'quvchilarda matn yaratish ko'nikmasi va malakasini rivojlantirish og'zaki va yozma nutq savodxonligini oshiradi deb hisoblayman.

Bugungi kunda o'zbek tili bir necha rivojlangan davlatlarning 60 ga yaqin oliy o'quv yurtlarida va 100 dan ziyod maktablarida o'rganib kelinayotganligi haqida ma'lumotlar bor. 2018-yil avgust oyida televizorda bir o'zbek jurnalistining Germaniyadagi Gumbold universiteti professori Ingeborg Baldauf xonim bilan uyushtirgan suhbatini ko'rib qoldim. Ochig'i, bu ayolning sof o'zbek tilida gaplashayotganligini ko'rib, hayron qoldim. Chunki u o'zbek tili qoidalarini joyiga qo'yib, ravon suhbatlashayotgandi. Keyin bilsam, professor o'zbek tili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustida ishlayotgan ekan. Universitetda o'zbek tilini o'rganayotgan xorijlik talabalar ham bor ekan. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sharoitida agar biz boshqalarga qiziq bo'lgan urf-odatlarimizni, adabiyotimiz durdonalarini, tansiq taomlarimizni, tilimizni jahonga chiroyli ko'rsata olsak, yurtimizga qiziquvchilar soni yildan-yilga ortib boradi. Avar shoiri va yozuvchisi Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" asari sevib o'qiydigan kitoblarimdan biri. Barcha o'qishi lozim

bo'lgan 100 ta kitob ro'yxatida bu asar nomi ham keltirilgan. Shu asarda keltirilgan bir hikoyani qayta-qayta o'qiyman. Hikoyani to'lig'icha keltirmoqchiman:

Parijda dog'istonlik rassomni uchratib qoldim. U inqilobdan keyin Italiyaga ketgan, o'sha joyda uylangan va yurtiga qaytmagan. Tog'liklar an'anasi bo'yicha tarbiya ko'rgan dog'istonlikning yangi mamlakatga ko'nikishi qiyin kechibdi. Dunyo bo'ylab kezib chiqqan rassom oxiri go'zal poytaxt shahardan qo'nim topibdi. Ammo qayda kezmasin, sog'inch ajralmas yo'ldosh bo'libdi. Men bo'yoqlar orqali suratlarga ko'chgan sog'inchni ko'rgim keldi va rassomdan ijod namunalaridan ko'rsatishini so'radim.

Rassom "Vatan sog'inchi" suratini ko'rsatdi. Unda italyan ayol (rassomning xotini) qadimiy avarliklar kiyimida tasvirlangan. Ayol tog'dagi buloq yonida, qo'lida gotsatlinlik ustalar tayyorlagan kumush ko'za. Toshlar orasidagi ovul qayg'uli - qora rangda, ortidagi tog' ham qoramtir. Cho'qqilarni tuman qoplagan.

- Tuman - bu tog'larning ko'z yoshi, - deya izoh berdi rassom. - Tog' yon bag'ridan tuman suzib o'tganda, qoyalar ustida tomchilar paydo bo'ladi. Tuman, bu - men.

Boshqa rasmda tikanli buta shohida o'tirgan qush tasvirlangan. Bunday tikanli buta - changallar, toshlar orasida o'sadi. Qush sayrayapti, uying derazasidan g'amgin tanish ayol qarab turibdi. Mening suratga qiziqish bilan qarab turganimni ko'rgan rassom tushuntirishga urindi:

- Bu surat qadimiy avar afsonasi asosida yaratilgan.

- Qanday afsona?

- Qushni ushlab, qafasga solishadi. Qafasga qamalgan qush kechayu kunduz faqat bitta so'zni takrorlayvergan: Vatan, Vatan, Vatan, Vatan, Vatan, Vatan... Men ham o'tgan yillarda faqat shu so'zni takrorladim.

Qushni ushlab turgan kishi o'yga toldi: "Uning vatani qanday ekan, qayerda ekan? Ehtimol, jannat qushlari va jannat daraxtlari bor gullab-yashnagan bir o'lkadir. Yaxshisi, qushni qo'yib yuborib, qaysi tomonga uchishini kuzatayin. Menga qushcha mo'jizaviy mamlakat yo'lini ko'rsatar". U oltin qafasning tuynugini ochdi, qush ozodlikka chiqdi. Qush o'n qadamcha uchib, silliq toshlar orasida o'sgan changal shoxiga qo'ndi. Shu changal shoxlari orasida qushning uyasi bor ekan... Men ham o'z Vatanimga qafasning derazasidan tikilib turibman, - deya hikoyasini tugatdi rassom.

- Nega unda o'z ovulingga qaytmayapsan?

- Endi kech. O'z vaqtida men Vatandan qaynoq yuragimni olib ketgandim, endi unga keksaygan suyagimni olib qaytamanmi?

Parijdan qaytganimdan keyin rassomning qarindoshlarini izlab topdim. Hayratlanarlisi, uning onasi hali hayot ekan. Onasining uyiga to'plangan qarindoshlari o'z Vatanini tashlab ketib, uni o'zga yerlarga almashgan o'g'il haqidagi hikoyani g'amgin tinglashdi. Ular adashgan o'g'ilni kechirganday bo'lishdi, tirik ekanidan suyunishdi. Shunda birdan onasi so'rab qoldi:

- Sizlar avarcha so'zlashdinglarmi?

- Yo'q, biz tarjimon yordamida gaplashdik. Men ruscha gapirdim, u fransuzcha.

Ona yuziga qora chodrasini tushirdi, bizda onalar o'z o'g'lining o'lganini eshitganda shunday qilishadi. Uzoq jimlikdan keyin mushtipar: "Rasul, sen yanglishibsan, mening o'g'lim allaqachon o'lgan ekan. Agar u hayot bo'lganida, avar onasi o'rgatgan tilni unutmagan bo'lardi!" deya suhbatga nuqta qo'yadi.

Vo darig'! Ona tilida gaplashmagani uchun volida o'z o'g'lini o'ldiga chiqarsa-ya... Mana shu ona tiliga sadoqat, mana shu milliy g'urur emasmi?! Demak, biz amalga oshirilayotgan islohotlar muammolarni yechishdan oldin, o'zgarishni o'zimizdan boshlashimiz kerak. Sizdan Napoleon Banopart yoki Demosfenday notiq bo'lishingiz talab etilmaydi, shunchaki O'zbekistonning ramzi va onamizday qadri bo'lgan tilimizni asrasangiz shuni o'zi kifoya.

Har qanday qurol asralmasa, unga yetarli darajada e'tibor berilmasa, biling-ki, u ming qimmatbaho bo'lsa ham zanglaydi. O'zimizning bebaho ne'matimiz va yengilmas qurolimizni asrash har birimizning qo'limizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami.-T.,2001
2. Козлова М.С.Философия и язык.-М.,1972.
3. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка.-М.,1984.
4. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T., 1980
5. Shayxislamov N. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning asosiy yo'nalishlari //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4.
6. Xakimova I. M., Sadirov A. A. Zamonaviy filning yoritilishi //Science and Education. – 2020. – T. 1. –№. 4.
7. Adelya I. N., Islombek S. K., Axmedova M. M. Rol literatury v formirovanii grajdanskogo prava //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4.

8. Ravshanova G. R. Kreativlik–shaxsning yaxlit tarzda rivojlanishi omili //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 3.